JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHDA XORIJ TAJRIBASI

Adolat SPD markaziy apparat xodimi

Mirzarayimova Sevara

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlarda yoshlar huquqbuzarliklarining oldini olish sohasida amalga oshirilayotgan loyihalar, tadbirlar va ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinadi. Tadqiqot va tahlil asosida O'zbekistonda ijobiy natijalar bergan loyihalarni amalga oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.*

Kalit so'zlar: *yoshlar, jinoyatchilikning oldini olish, xorijiy tajriba, jinoyatchilikka qarshi kurashning haqiqati va adolati, ijtimoiy profilaktika, kriminologik profilaktika, qurbonologik profilaktika.*

Аннотация: *В этой статье будут проанализированы проекты, мероприятия и научные исследования, проводимые в области профилактики правонарушений среди молодежи в зарубежных странах. На основе исследований и анализа разработаны предложения и рекомендации по реализации проектов, давших положительные результаты в Узбекистане.*

Ключевые слова: *молодежь, профилактика преступности, зарубежный опыт, реальность и справедливость борьбы с преступностью, социальная профилактика, криминологическая профилактика, виктимологическая профилактика.*

Abstract: *This article will analyze projects, activities and scientific research conducted in the field of crime prevention among young people in foreign countries. Based on research and analysis, proposals and recommendations have been developed for the implementation of projects that have yielded positive results in Uzbekistan.*

Keywords: *youth, crime prevention, foreign experience, reality and justice of the fight against crime, social prevention, criminological prevention, victimological prevention.*

Kirish

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili 10-29 yoshdagi yoshlar o'rtasida dunyo bo'yicha 200 mingga yaqin odam o'ldirish sodir etilib, bu barcha odam o'ldirishlarning 43%ni tashkil qiladi [1]. Hozirgi kunda dunyoda 15-19 yoshdagilarning to'rtdan bir qismidan ko'prog'i yoki 155 million o'smir spirtli ichimliklarni iste'mol qiladi. 2019 yilda OIV bilan kasallangan o'smirlar soni taxminan 1,7 millionni tashkil etgan [2]. Yo'l-transport jarohatlari 5 yoshdan 29 yoshgacha bo'lgan bolalar va yoshlar o'limining asosiy sababi hisoblanadi [3]. O'z joniga qasd qilish katta o'smir yoshdagi (15-19 yosh) o'limning to'rtinchi asosiy sababidir [4]. Alkogol 15 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan odamlar orasida erta o'lim va nogironlikning asosiy xavf omili bo'lib, ushbu yosh guruhidagi barcha o'limlarning 10 %ni tashkil qiladi [5].

Mazkur raqamlar yoshlarning jamiyat hayotida tutgan o'rni qanchalik muhimligini ko'rsatish bilan birga, yoshlar o'rtasidagi g'ayriijtimoiy xulq-atvor va nosog'lom turmush tarzi, jinoyatchilik jamiyatning kriminallashuviga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri ekanligidan dalolat beradi.

Bu esa yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilikni kriminologik jihatdan tadqiq etish, bugungi kunda nafaqat yuridik fan yoki Qonunchilik, balki jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyoti nuqtai nazaridan ham dolzarb ekanligini ko'rsatadi. A.I.Belskiy va E.N.Likovlar to'g'ri ta'kidlaganidek, voyaga etmaganlar o'rtasidagi jinoyatchilik muammosi, shuningdek, yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilik muammosi hamma davrda barcha mamlakatlarda bo'lgan va davlatning asosiy muammosi bo'lib qolmoqda [6, s.87.]. Mazkur fikrga qo'shilgan holda, yoshlar tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olishda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini o'rganish va ularni O'zbekiston sharoitida amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga egaligini qayd etish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ishini amalga oshirishda xorijiy davlatlarda yoshlar tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olishga oid dasturlar va loyihalarni tahlil qilish, statistik, solishtirma, empirik usullaridan foydalangan holda ularning ijobiy tajribalaridan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari o'rganilgan.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda mamlakatimizda jinoyatlar, jumladan yoshlar tomonidan tomonidan jinoyat sodir etilishini oldini olishga oid ko'plab chora-tadbirlar, loyihalar amalga oshirilmoqda. Natijada 2021 yilda O'zbekistonda jinoyatchilik indeksi 34,7 ballni, xavfsizlik indeksi 65,3 ballni tashkil etdi va xavfsizlik bo'yicha dunyoda 40-o'rinni egalladi. Jinoyatchilik darajasi bo'yicha esa o'tgan yilga nisbatan 14 pog'onaga pasayib, dunyoda 96, Osiyoda 25, Markaziy Osiyoda uchinchi o'rinni egalladi [7].

Shu bilan birga, respublikada oxirgi 3 yilda ro'yxatga olingan jinoyatlar soni 2,4 barobar oshgan, agar 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida jinoyatlar 46089 ta bo'lsa, 2021 yilning shu davriga nisbatan bu ko'rsatkich 111082 taga ortganligini ham qayd etish lozim. 2021 yilda jinoyat sodir etgan shaxslarning yoshi jihatidan tahlil qilinganida, jami jinoyat sodir etgan shaxslar 80303 nafardan iborat bo'lib, shundan 31 yosh va undan kattalar 62,0 %ni (49777 nafar), 25-30 yoshdagilar 19,5 %ni (15466 nafar), 18-24 yoshdagilar 15,4 % ni (12465 nafar) va 13-17 yoshdagilar 2,9 %ni (2595 nafar) tashkil etgan [7].

Dunyo mamlakatlarida yoshlar tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olishga oid turli loyihalar amalga oshirilmoqda. Tadqiqot jarayonida Evropa, Shimoliy Amerika davlatlari (AQSh, Kanada) va yangi Zelandiya tajribasi o'rganildi.

Olweus Bullying Prevention Program (BPP) – Olweus zo'ravonlikning oldini olish dasturi ko'p komponentli, universal maktabga asoslangan dastur bo'lib, zo'ravonlikni kamaytirish va oldini olishga qaratilgan. U zo'ravonlik uchun mavjud omillarni bartaraf qilish maqsadida maktab muhitini qayta qurish uchun mo'ljallangan. Mazkur dasturning maqsadi zo'ravonlik va undan jabrlanishni kamaytirish, zo'ravonlikning yangi holatlari rivojlanishining oldini olish va maktabda tengdoshlar bilan munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan bo'lib, boshlang'ich, o'rta va yuqori maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan.

Olweus Bullying Prevention Program dasturi dastlab Norvegiyada ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan, keyinchalik boshqa mamlakatlarda, shu jumladan

Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya va Germaniyada ham qo'llanila boshlangan. Dastlabki tadqiqot Norvegiyada bo'lib o'tgan va unda 42 ta boshlang'ich va o'rta maktablarning 4-7-sinflaridagi 2500 nafar o'quvchi ishtirok etgan. Tadqiqot natijasida o'quvchilar orasida haqorat qilish va zo'ravonlik qurboni bo'lish holatlari sezilarli darajada kamaygan. Bundan tashqari, vandalizm, o'g'irlik, zo'ravonlik va spirtli ichimliklarni iste'mol qilish hollari ham kamaygan.

Ikkinchi tadqiqot natijalariga ko'ra, o'quvchilarning boshqalarni haqorat qilishi yoki ularni haqorat qilishlari haqidagi xabarlari 30% dan 70% gacha kamaygan. Bundan tashqari, sinfdagi tartib va intizomda sezilarli yaxshilanishlar, maktab ishiga nisbatan ijobiy munosabat kuzatilgan [8].

SNAP™ (Stop Now and Plan) dasturi jinoiy Adliya tizimi bilan to'qnash kelgan yoki to'qnash kelish xavfi ostida bo'lgan va jamiyatga zid yoki tajovuzkor xatti-harakatlarning dastlabki belgilari namoyon bo'lgan bolalarning kelajakda huquqbuzarlik qilish xavfini kamaytirish uchun xatti-harakatlarni o'zgartirish usullaridan foydalanadi. Dastur 6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar va qizlar uchun mo'ljallangan bo'lib, ularda tajovuzkor va jamiyatga zid xatti-harakatlar rivojlanishini, kelgusida huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olish, bolalar va ularning ota-onalariga jahl va hissiyotlarni nazorat qilishni o'rgatish, bolalarda tajovuzkorlik va huquqbuzarlik sodir etish ehtimolini kamaytirish uchun zarur xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Natijalar dastur xulq-atvorida muammolari bo'lgan bolalarni davolashda samarali ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqotlarga ko'ra, dasturda ishtirok etayotgan bolalarning 18 yoshga to'lgunga qadar sudlanish holati ikki barobar kamroqni, yuqori xavf guruhidagi bolalarning 18 yoshga to'lgunga qadar sudlanmaganlik holati 60%ni tashkil etgan. Shu bilan birga, dasturda ishtirok etayotgan ota-onalar o'z farzandlarini tarbiyalash qobiliyatiga ko'proq ishonch bildirishlarini va farzandlari bilan muloqotda kamroq stressni boshdan kechirganliklarini bildirishgan [8].

Functional Family Therapy (FFT) – funktsional oilaviy terapiya xizmatiga 1970 yilda doktor Jeyms F.Aleksandr tomonidan asos solingan bo'lib, u "xavf" guruhiga kiruvchi yoki xulqi yoxud hissiy muammolari bilan bog'liq holda

davolanishga yuborilgan 11 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar uchun mo'ljallangan samarali, qisqa muddatli oilaviy maslahat xizmati hisoblanadi [9]. FFT LLC esa 1998 yilda Functional Family Thegaruni jamoat idoralarida tizimli ravishda ko'paytirishga rahbarlik qilish va oilaviy maslahat modeli bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga yordam berish maqsadida tashkil etilgan.

Funktsional oilaviy terapiya dasturi ishtirokchi o'smirlar va ularning oilalariga yordam beradi. Oilaviy terapevt oilalar bilan ishlaydi va alohida oila a'zolariga oiladagi o'zgarishlarni qanday qilib ijobiy rag'batlantirishi mumkinligini tushunishga yordam beradi. Dastur uch bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda terapevt terapiya qarshiligini engishga harakat qiladi va oilani aloqa va o'zaro ta'sirning salbiy shakllarini o'zgartirish mumkinligiga ishonishga undaydi. Ikkinchi bosqichda oila a'zolariga kundalik vaziyatlarga yaqinlashishning yangi usullari o'rgatiladi; ularga xatti-harakatlarini va vaziyatlarga munosabatini qanday o'zgartirish kerakligi ko'rsatiladi. Uchinchi bosqichda oila a'zolari o'zlarining yangi munosabatlar ko'nikmalarini boshqa ijtimoiy vaziyatlarga (masalan, maktab yoki ish) o'tkazishga da'vat etiladi. Dastur kam xarajat evaziga takroriy jinoyatlar va voyaga etmaganlar jinoyatlarini kamaytiradi va o'n ikkita seans o'smirni bir oy davomida ushlab turish xarajatlarining oltidan bir qismini tashkil qiladi. Dasturning yana bir ijobiy ta'siri shundan iboratki, shartli ravishda ozod qilingan o'smirlarning aka-ukalarini ularning oilasiga ko'rsatilgan yordam tufayli jinoyat sodir etish ehtimoli kamroq hisoblanadi [10].

Xulosa

Ushbu maqola jinoyatchilikka qarshi kurashishda xorijiy tajribalarni o‘rganib, samarali strategiyalarni tahlil etdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Norvegiyada ijtimoiy dasturlar orqali jinoyatchilik darajasi 40% ga kamaygan bo'lsa, AQShdagi "aqlli politsiya" yondashuvi natijasida jinoyatlar 25% ga pasaygan. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlik esa jinoyatchilikka oid ishlarni 30% ga qisqartirishga erishdi.

Kelajakda, ushbu muvaffaqiyatli strategiyalarni o'z sharoitlariga mos ravishda amalga oshirish O'zbekiston va boshqa mamlakatlar uchun muhim

ahamiyatga ega. O'rganilgan tajribalar asosida, kelgusida jinoyatchilikka qarshi kurashda profilaktika, innovatsion texnologiyalar va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish orqali samarali natijalarga erishilishi kutilmoqda. O‘rganilgan xorijiy tajribalar, shu bilan birga, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va jinoyatchilikni oldini olishda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https:/www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/youth violence(мурожатсанаси1.07.2022 йил).
2. https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/adolescents-health-risksand-solutions (мурожаат санаси 21.07.2022 йил).
3. https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/children-new-threats-to-health (мурожаат санаси 22.07.2022 йил).
4. https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/adolescent-mental-health мурожаат санаси 22.07.2022 йил).
5. https://www.who.int/health-topics/alcohol#tab=tab_1 (мурожаат санаси 22.07.2022 йил).
6. Бельский А.И., Лыков Э.Н. Молодежная преступность: проблемы и пути решения // Право: история и современность. 2020. № 3(12). С.84–91.
7. https://stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task =frontfile.download&cat id=366&id=2321&Itemid=1000000000000 (мурожаат санаси 25.07.2022 йил).
8. https://www.publicsafety.gc.ca/cnt/rsrcs/pblctns/prmsng-mdl-vlm1/index-en.aspx#toc_4a (мурожаат санаси 26.07.2022 йил).
9. https://www.fftllc.com/fft (мурожаат санаси 26.02.2022 йил).
10. https://www.impactlaw.com/criminal-law/juvenile/prevention (мурожаат санаси 26.07.2022 йил).